

# TENG QADAMLAR

Mulohaza

—Oygul, shoshma qayoqqa ketayabsan?

—Musiqa to'garagiga.

—U yerda nima qilasan?

—Doira chalishni o'rganayabman.

—Jinnimisan, doirani o'g'il bolalar chalishadiku?

Bejizga maqolamizni bu tariqa boshlamadik. Chunki, bizda qadimdan qizlar u ishni qiladi, o'g'il bolalar bu ishni qiladi degan tushinchasi mavjud edi. Ammo, yillar o'tib hayotining o'zi bizga bu tushunchaning qanchalik noto'g'ri ekanligini ko'rsatmoqda. Atrofga nazar tashlar ekanmiz, ba'zan erkaklar qila olmagan ishlarni ayol boshi bilan qilayotgan ayollarni ko'ramiz. Hayot bizni yangicha yashashga, yangicha dunyorqarash bilan olamga boqishga undamoqda.

Bugun jamiyatimizga «gender tengligi» tushunchasi toboro singib, ommolashib bormoqda. Qadimda ayol kishi deganda bizning ko'z o'ngimizda avvalambor ona siyosi keladi. Ammo bugun har bir ayol oddiy kuzatuvchi emas, balki mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlarning faol va tashabbuskor ishtirokchisi ham bo'lisi kerak. Mamlakatimizda ayol-qizlarimiz bilan erkaklarning teng huquqlarini anglatuvchi bu so'z aslida qanday ma'no anglatadi?

Ilk bor milliy qonunchiligidan “gender” tushunchasiga ta'rif berilgan bo'lib, gender – xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan, siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta'llim, ilm-fan sohalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy jihat hisoblanadi.

“Gender” tushunchasining lug'aviy ma'nosi lotincha “genus”, ya'ni “jins” ma'nosini anglatadi. Agarda, biologik jins insonlarni ayol va erkaklarga ajratadigan bo'lsa, gender – bu ayol va erkaklarning jamiyatdagi o'rnini ajratishga qaratilgan. Jamiyatda ayol va erkaklarning o'z o'rnini topishi va belgilashi uchun davlat ularga bir xil sharoit va imkoniyat yaratib berishi gender tenglikni ta'minlashda asos bo'lib xizmat qiladi.

Demakki, bugun ayol-qizlarimiz ham jamiyatda davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan demokratik jarayonlarda faol ishtirok etishi va bilim, saviyasini oshirish imkoniyati yuqoriligini anglatadi.

So'nggi yillarda gender tenglikni ta'minlash, ayollarning ijtimoiy va siyosiy hayotdagi rolini oshirish bo'yicha ishlar bir necha yo'naliishlarda olib borilmoqda. Ya'ni bu borada tizimli ravishda ayollar huquqlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini, ayollarni himoya qilishning institusional asoslарini takomillashtirish, aholining gender tenglik va ayollar huquqlari to'g'risida xabardorligini oshirish, huquqni qo'llash amaliyotida ularga rioya etilishini ta'minlash uchun mas'ul mansabdar shaxslarni tegishli huquqiy me'yorlar asosida o'qitish yuzasida qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda bir qator qonun hujjatlari, jumladan, Prezidentning xotin-qizlar huquqlarini ta'minlash, xususan, gender tengligi va ayollarni zo'ravonlik va zulmdan himoya qilish, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish maqomini kuchaytirish to'g'risidagi farmon va qarorlari qabul qilingan.

Shu asnoda barcha soholar singari madaniyat va san'at sohasida ham gender tengligini ta'minlash borasida ham samarali ishlar olib borilayotganligini atab o'tish joiz. Bu borada aynan Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniyat vazirligi tasaruqidagi tashkilotlarda yigirmaga yaqin ayol-qizlarimiz rahbarlik qilmoqda. Va bugun o'tgan yillarga nisbatan sohada ayol-qizlarimizning faolligi ortib bormoqda. Turli tadbirlarda, loyiha va yo'naliishlarda erkaklar bilan tengdek yelkama-yelka turib ishlayabdi. Bu alohida e'tirofga loyiq. Bu borada davlatimiz tomonidan madaniyat va san'at sohasini rivojlantirishga qaratilgan qonun hujjatlari ham dasturilamal bo'lmoqda.

Davlat teatrлari repertuarlariga ham aynan gender tengligi mavzusi yoritilgan spektakllarni ko'paytirish yuzasidan ham tegishli ishlar amalga oshirilib, bu borada ilk qadamlar tashlanmoqda. Jumladan, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatri K.Raxmanovning "Muxabbat shamoli", Q.Norqobilning "Gul olmagan go'zallar", S.Balg'abayevning "Qiz yigirmaga chiqqanda" spektakllari va Qoraqalpoq davlat Yosh tomoshanbinlar teatri jamoasining ingliz dramaturgi Rey Kunining "Qora diplomat" spektaklari hududlarda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyalarni ta'minlash masalalarini o'z ichiga olgan asarlardan xisoblanadi. Teatrga kelgan har bir tomoshabin saxnada haqiqiy hayot manzarasining guvohi bo'lishadi. Va ma'lum darajada undan o'ziga xulosa chiqaradi. Bugun ma'lum darajada biz teng huquqlilik sari qadam tashlamoqdamiz. Muhimi, ilk qadam. Aslida siz u biz teng huquqli insonlarmiz. Shuningdek, qadamlarimiz ham teng.

—Oygul, shoshma qayoqqa ketayabsan?

—Musiqa to'garagiga.  
—U yerda nima qilasan?  
—Doira chalishni o'rganayabman.  
—Ofarin, qizlarimizdan ham mohir doirachilar chiqsa qanday yaxshi!

Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng  
huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash  
masalalari bo'yicha "Maslahat Kengashi" a'zosi,  
san'atshunos jurnalist  
Gulmira PALWANOVA.

Madaniyat muasasalari faoliyatini tashkil etish  
bo'limi bosh mutaxassis P.Mamutov.